

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

## SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI MUHIM QARASHLARI

Yo`ldosheva Dilrabo Sobir qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Psixologiya kafedrası 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatimizning eng muhim bo`lagi bo`lgan oila va undagi kelajagimiz poydevori bo`lmish farzandlar tarbiyasi haqida so`z yuritiladi. Farzand tarbiyasi muhim jarayon bo`lganligi bois bu jarayon mobaynida buyuk mutafakkirlarimizning qarashlarini o`rganmaslikning iloji yo`q. Shu bois bu maqolada farzand tarbiyasini aynan allomalar qarashlari bilan bog`lagan holda o`rganamiz.

**Kalit so`zlar:** tarbiya, oila, alloma, ota-ona, farzand, avlod

**Аннотация:** В данной статье говорится о семье, которая является важнейшей частью нашего общества, и воспитании детей, которое является основой нашего будущего. Поскольку воспитание ребенка – важный процесс, невозможно не узнать в ходе этого процесса взгляды наших великих мыслителей. Поэтому в этой статье мы будем изучать образование детей в связи с взглядами ученых

**Ключевые слова:** образование, семья, аллома, родитель, ребенок, поколение

**Abstract.** This article talks about the family, which is the most important part of our society, and the upbringing of children, which is the foundation of our future. Since raising a child is an important process, it is impossible not to learn the views of our great thinkers during this process. Therefore, in this article, we will study child education in connection with the views of scholars

**Keywords:** education, family, alloma, parent, child, generation.

### KIRISH.

Oila hayotning uzluksizligini, avlodlar davomiyligini ta`minlovchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Har bir inson dunyoda kelib voyaga yetar ekan, eng birinchi tanigan muhiti aynan oiladir. Inson uchun muhim bo`lgan ijtimoiy, psixologik, emotsional ehtiyojlarini ham eng avvalo oila orqali qondiradi. Jamiyatning iqtisodiy, madaniy, ma`naviy va ijtimoiy rivojlanishi oilada bolalar tarbiyasi bilan uzviy bog`liq. Har bir kishi ilk rivojlanishni oilada shakllantiradi. Oila - mehr-muhabbat, jipslik, birdamlik manbaidir. Odam oilada nimani qo`lga kiritisa, u keying hayoti davomida saqlanib qoladi. Oilada shaxsning poydevori qo`yiladi. Bolani tarbiyalash murakkab, lekin ayni paytda manfaatlidir. Ota-onalar farzandining muvaffaqiyatli rivojlanishida ularning roli qanchalik muhimligini tushunishlari kerak. Har bir ota-ona farzand tarbiyasidao`zlarining burch va mas`uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Oilada ruhiy hotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro`sining yuqori bo`lishi, bolalarga talab qo`yishda oila kattalari o`rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsiyatini tarbiyalashga alohida e`tibor berish, Bolani sevish va izzatini joyiga qo`yish, oilada qat`iy rejim va kun tartibini o`rnatish, bolning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o`zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo`llab-quvvatlash ota-onalarning pedagogic bilimlarga ega ekanligini ko`rsatadi.

Oila – jamiyat tayanchi, farzandlar ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg`ulari oilada yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo`lishi eng

oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

## MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Qadimdan ota-bobolarimiz oiladagi farzand tarbiyasi haqida jiddiy qarab kelganlar. Ular o'z asarlarida ham qarashlarini bayon qilganlar. Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy shular jumlasidandir. Jumladan, Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u-bilig" asarida Oilaviy tarbiya – bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. "Mabodo bolalarning xulq-atvori yomon bo'lsa, bunda ayb bolada emas, ota-onadadir" deydi. Bundan biz Bolani qanchalik tarbiya qilmaylik, agar o'zimiz tarbiyali bo'lmasak qilgan sa'y-harakatlarimiz bari befoyda ekanligini tushunishimiz mumkin. Bola hech qachon o'z-o'zidan tarbiyasiz, quloqsiz bo'lib qolmaydi, uning ota-onasi bunga yo'l qo'yganligi, bola tarbiyasiga jiddiy kirishmaganligi, farzandiga yaxshi o'rnak bo'la olmaganligi sabab bo'ladi.

O'zining nabirasi Gilonshohga atab yozgan "Qobusnoma" asari bilan dunyoga mashhur allomalarimizdan biri Kaykovus ham o'z asarlarida oilaning muqaddas ekanligi, uning farzand tarbiyasiga alohida o'rni mavjudligini ta'kidlab o'tadi. Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mamlakatlaridan Abu Ali ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilining qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga Bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik tarqiiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

Imom al Buxoriy o'zining "Al-Jome' as-Sahih" va "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onalarga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr-oqibatli bo'lishga, ilm o'rganishga, pok va iymonli bo'lishga da'vat etgan. Oilada farzand tarbiyasi, ota-onani e'zozlash, qarindoshlik munosabatlari, vatanparvarlik, ilm-u ma'rifatga intilish, odob-axloq, kundalik turmush muammolari xususida ko'maklashadigan masalalar ifodalangan.

Abu Rayhon Beruniy butun dunyoda o'zining tafakkur xazinasi bilan alohida o'ringa ega bo'lgan katta va bebaho ilmiy meros qoldirgan buyuk olimlardan biridir. alloma ota-onalarga bola ruhiyatini hamisha mo'tadil saqlashni tavsiya etadi. Bolaning ruhiyatini mo'tadil saqlash uchun uni kuchli g'azablanish, hafalik, qo'rqish, qattiq jismoniy toliqish hamda uyqusizlikdan asrash orqali ta'minlanishini aytadi.

Atoqli allomalarimizdan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Al-Xorazmiy esa o'z asarlarida ota-onalarni 2 toifaga, ya'ni tug'lish otasi (biologik ota) - farzandning jismoniy yaratilishi, o'sib-ulg'ayishi uchun mas'ul bo'lsa, ta'lim beruvchi ota (ma'naviy ota) esa farzandining ruhiy jihatdan to'laqonli voyaga yetishi uchun javobgar bo'lgan toifalarga ajratadi.

Mir Alisher Navoiy "Mahbub ul Qulub" asarida farzand tarbiyalashda quyidagi ikki jihatni tarbiyaning ustuni deb ko'rsatgan: to'g'ri so'zlash va xushmuomalalik. Hech biro ta-ona o'z farzandiga go'zal axloqu tarbiyadan boshqa buyuk meros qoldira olmasligini ham ta'kidlagan. Bundan tashqari otaning farzand oldidagi eng birinch va muhim vazifasi bu – bolaga munosib, ulg'ayganda uyalmaydigan ism qo'yish ekanligini ham yozib qoldirgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

Sharq allomalarining butun ilmiy merosida oila, farzand tarbiyasi, ota-ona va yaqin qarindoshlar munosabatlari muhim o`rin olgan. Bugungi kunda yoshlar orasida kuzatilayotgan jinoyatlar va qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab sifatida oilaviy muhitning yaxshi emasligi, ota-ona va farzand munosabatlarining yaxshi yo`lga qo`yilmaganligini ko`rsatish mumkin. Ammo bunday kichik-kichik muammolar bora-bora katta nizolarning kelib chiqishiga zamin yaratmaslik uchun ham tarbiya masalasiga jiddiy yondashishimiz, ota-bobolarimiz o`git va nasihatlaidan samarali foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo`ladi.

## XULOSA.

hayoti, insoniy fazilatlari, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik, kamolotga intilish kabi g`oyalari hech bir davrda o`z ahamiyatini yo`qotmaydi. Avlodan-avlodga boy ma`naviy meros sifatida qolaveradi. Hozirgi zamon ta`lim-tarbiya vakillari, istiqloq mafkurasi shu kabi mutafakkirlarning merosidan bahramand bo`lsa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, oldiga qo`ygan maqsadlarni Sharaf ila bajarishi mumkin. Chunki ularning asarlarida insonni har tomonlama kamolotga yetkazish, ularning iymon-e`tiqodini butun qilib voyaga yetkazish bizning ham farz, ham qarzimizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ismoilova J.X. 2021. Sharq allomalari oila va tarbiya haqida. "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami.
2. G.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog`inov va boshqalar. 2013. "Oila psixologiyasi" Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o`quvchilari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent "Sharq"
3. Uvatov U. 2016. "Imom al Buxoriy. Buyuk yurt allomalari" Toshkent.
4. M.Norqo`ziyeva. "Sharq mutafakkirlarining oilaviy munosabatlarni tarkib toptirishga oid qarashlari".
5. R.Soatova. 2024. "Sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasi haqidagi qarashlari". Journal of new century innovations.
6. P.Kulmatov. 2024. "Oila tarbiyasi haqidagi sharq allomalarining qarashlari" Экономика и социум.
7. M.Isaxanova. 2021. "Oilaviy ta`limning kichik yoshdagi o`quvchining o`zini o`zi qadrlashiga ta`siri". "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal.